TILSHUNOSLIK

UDK: 811.677.1 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a121

# TERMIN VA TERMINOLOGIYANING TARIXIY TADRIJI VA ULAR HAQIDAGI ILMIY QARASHLAR

# HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE TERM AND TERMINOLOGY AND SCIENTIFIC CONSIDERATIONS ABOUT THEM

# ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ТЕРМИНА И ТЕРМИНОЛОГИИ И НАУЧНЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О НИХ

**Xoshimova Dildora Madaminovna[1], Xusaynova Munisa Yaxshibekovna[2]**

**[1]Xoshimova Dildora Madaminovna** – Namangan muhandislik texnologiya instituti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

**[2]Xusaynova Munisa Yaxshibekovna** – Namangan muhandislik texnologiya instituti tayanch doktoranti

***Annotatsiya***

*Ushbu maqola avvalambor terminologiyaning rivojlanish omillari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, terminlar va terminologiya haqida o'zbek va jahon tilshunoslarining ilmiy qarashlariga ham keng to'htalib o'tilgan. Bu ishda terminlarning turli xususiyatlarga ko'ra turlariga e'tibor qaratilgan va ularni misollar keltirilgan. Terminlarni yasalish usullari, ularni o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi aniq misollar yordamida ochib berilgan.*

***Abstract***

*This article primarily provides information about the development factors of terminology. Also, the scientific views of Uzbek and world linguists about terms and terminology are discussed in detail. In this work, attention is paid to the types of terms according to different characteristics and their examples are given. The methods of creating terms, their use in their own and figurative meanings are revealed with the help of concrete examples.*

***Аннотация***

*В данной статье в первую очередь представлена информация о факторах развития терминологии. Также подробно рассматриваются научные взгляды узбекских и мировых лингвистов на термины и терминологию. В данной работе уделяется внимание видам терминов по разным признакам и приводятся их примеры. С помощью конкретных примеров раскрываются приемы создания терминов, употребление их в собственном и переносном значениях.*

***Kalit so'zlar:*** *termin, terminologiya, leksika, atama, omonimiya, sinonimiya, metafora, metonimiya, sinekdoxa, minimal element.*

***Ключевые слова:*** *термин, терминология, лексика, термин, омонимия, синонимия, метафора, метонимия, снегдоха, минимальный элемент.*

***Key words:*** *term, terminology, lexicon, homonymy, synonymy, metaphor, metonymy, snegdoha, minimal element.*

## KIRISH

Hozirgi texnika asrida ilm-fan, texnologiyalar, jamiyat kun sayin, soat sayin jadal rivojlanib bormoqda. Globallashuv jamiyatning barcha sohalari qatori tilshunoslikka ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Tilshunoslik asrlar davomida turli obyektiv va subyektiv sabablar orqali o'zgarishlar ta'siri ostida rivojlanmoqda, takomillashmoqda va boyib bormoqda. Ayniqsa tilshunoslikning muhim ajralmas bo'g'ini hisoblangan terminologiya ham ijtimoiy-siyosiy faol hayot, ilmiy kashfiyotlar va tadqiqotlar tufayli turli yangi-yangi terminlar bilan boyimoqda.

Terminologiya umumiy xususiyatiga ko'ra leksikaning bir qatlami bo'lib, fan, texnika va boshqa sohalarga oid maxsus so'zlar ya'ni terminlar majmuidir. Terminlarning boshqa umumiste'moldagi so'zlardan farqi shundaki, ularning qo'llanishi ma'lum darajada nazorat ostida bo'ladi.

Tilga yangi terminlarning kirib kelishi natijasida tilning zaxirasi muntazam yangi so'zlar bilan boyib bormoqda. Shuning uchun ham tilshunoslikda terminologiya eskirmaydigan, muntazam izlanish talab etadigan bolimlardan biri hisoblanadi. Turli manbalarda, darsliklarda, o'quv qo'llanmalarda, dissertatsiya ishlarida jahon va o'zbek tilshunoslarining termin va terminologiya haqida fikrlari, qarashlarini kuzatishimiz mumkin. Ularning deyarli barchasida terminlar maxsus so'zlar sifatida ta'riflangan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Termin so'zi lotincha *terminus* – "chegara"demakdir. Termin deganda fan, texnika yoki san'at sohasidagi muayyan tushunchani anglatuvchi so'z yoki so'z birikmasi tushuniladi."- deb tarif beradi X.Qodirova [1]. Demak, terminlar ma'lum bir soha doirasida bo'ladi va shu soha vakillari tomonidan keng foydalaniladi. Boshqa soha egalari tushunishlari uchun esa izohli lug'atlar kerak bo'ladi.

TILSHUNOSLIK

Tilshunos G.O.Vinokur terminga munosabatda bo‘lar ekan quyidagicha yozadi: «Terminlar “paydo bo‘lmaydi”, balki ularga ehtiyoj sezilganda “o‘ylab topiladi”, “ijod qilinadi”» [2]. Darhaqiqat, inson paydo bo‘libdiki, qornini to‘ydirishi, o‘z xavfsizligini ta’minlashi, umuman, hayot kechirishi uchun tinimsiz yangi ehtiyojlar paydo bo‘lgan. Buning natijasida esa yangi narsalar va shu bilan birga yangi terminlar ham paydo bo‘lgan. Hayvonlarni qo‘lga o‘rgatish, ulardan turli ham ashyo manbai sifatida foydalanish mezolit davrda boshlangan. Sovuq havo insonlarda issiq kiyimlarga ehtiyojni keltirib chiqardi va hayvonlardan ilk tabiiy tolalar olishga bo‘lgan ehtiyoj paydo bo‘ldi. Shu tariqa ilk iplar, ularga ishlov beruvchi ilk soda uskunalar va shu bilan birga ularning yangi nomlari ya’ni terminlari ham paydo bo‘ldi. Hozirgi kunda ham bu jarayon davom etishdan to‘xtagani yo‘q. tolalarning yangi navlari o‘ylab topilmoqda, yangi qayta ishlash texnologiyalari kashf etilmoqda. Bu o‘zgarishlar nafaqat qishloq xo‘jaligi yoki tekstil sohasiga, balki tilshunoslikning terminologiya, leksikologiya kabi bir qator tarmoqlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda, ularning boyib borishiga xizmat qilmoqda.

Xyuellning qayd etishiga ko‘ra, “Terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo‘llanadigan so‘zlar yig‘indisidir. Biz terminlar ma’nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz”[3].

Xyuellning fikridan shuni tushunishimiz mumkinki, jamiyatdagi mavjud barcha sohalarning o‘ziga xos so‘zlari ya’ni o‘zining terminlari mavjud. Masalan, biz tadqiqot olib borayotgan tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi sohasining ham o‘zigagina xos bo‘lgan terminlari mavjud: chigit, tola, yigirish, chanoq, to‘qish, tikish, mato va boshqa ko‘plab terminlar.

Terminlar odatda bo‘yoqdorlikka ega emas, omonim, sinonimlari mavjud bo‘lmagan, monosema so‘z yoki so‘z birikmasi hisoblanadi. Terminlarning qo‘llanishi muayyan soha bilan chegaralangan bo‘ladi. Lekin biz terminlarni tor doiradagi terminlar va keng doiradagi terminlarga ajratishimiz mumkin. Bunga misol qilib biz tadqiqot olib borayotgan paxta tabiiy tolasiga oid terminlarni olsak, paxta, ip, gazlama, g‘o‘za, chanoq kabi keng doiradagi terminlarni shu soha vakillari bilan bir qatorda butun omma qiyinchiliksiz tushuna oladi. Lekin hosil shoxlari, tugunchalar, toy, gidrolis, sellyuloza kabi tor doiradagi terminlar ushbu sohaga daxldor kishilar uchungina tushunarli va ular tomonidangina qo‘llaniladi.

N.Uluqov o‘zining “Tilshunoslik nazariyasi” o‘quv qo‘llanmasida termin so‘ziga quyidagicha ta’rif beradi: “Termin — ilm- fan va kasb-hunar sohalariga oid narsa, voqea-hodisa haqidagi tushunchalarni aniq ifodalaydigan, ma’nosi maxsuslashtirilgan, qo‘llanish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki birikma”[4]. Bundan ko‘rinib turibdiki, har qanday terminda albatta chegara bo‘ladi, bu tushunish yoki nutqda qo‘llash chegarasi. Misol qilib olsak, paxtani dastlabki ishlash texnologiyasiga oid “tashish, quritish, tozalash, jinlash, linterlash” kabi terminlar bu sohadan yiroqda bo‘lgan kishilar uchun tushunarsiz, soha vakillarigagina tushunarli bo‘ladi.

R.Doniyorovning yozishicha: «Konkret bir fan ham, umuman texnika, binobarin, ularning terminlari ham muayyan bir xalqning ijod mahsuli emas. Ular jahon xalqlarining jamisi to‘plagan, bilgan o‘rgangan obyektiv borliqning majmuidir, yig‘indisidir” [5]. Tabiiy tolalar va ularga ishlov berish sohasi ham ilk hayvonlar junini olish va ulardan oddiy issiq kiyimlar tikishdan boshlab bugungi ishlab chiqarish texnologiyalariga qadar rivojlanishi butun dunyo xalqlarining mehnati natijasidir. O‘z navbatida ushbu sohaga doir terminlarning paydo bo‘lishi va boyib borishi ushbu natija isbotidir.

U.Nosirov terminlarni qo‘llanishiga, qanday sohaga oidligiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratadi: [6]

1. Ilmiy terininlar
2. Kasbiy terminlar”

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ilmiy terminlarga biz ma’lum ilmiy sohaga oid terminlarni kiritamiz. Tabiiy tolaga oid terminlarni ham biz 2ga ajratishimiz mumkin. Paxtachilik ilmiy izlanishlariga doir terminlarni ilmiy terminlarga kiritamiz. Masalan, chatishtirish, seleksiya, agrometeostansiya, melioratsiya, tuproq eroziyasi, g‘o‘za navlari, agroekologiya, aroruda, g‘o‘za vilti, 138-F, Farg‘ona-3, Xorazm-126, selluloz,. Paxta tabiiy tolasi yetishtirish jarayonidagi bo‘g‘inlarda ishlatiladigan terminlar kasbiy terminlar hisoblanadi. Masalan, defoliatsiya, o‘g‘it, chigallashgan tolalar, sug‘orish, gazlama, ip, paxta terish, paxta tozalash, paxta momig‘i.

S. Usmonovning o‘zining “O‘zbek terminologiyasining ba’zi masalalari” nomli ishida semantik usul bilan termin yaratishga oid fikrlarga duch kelamiz. Usmonov o‘zining ishida “termin so‘zining qo‘shimcha qo‘llanadigan asosiy (bosh) ma’nosigagina tayanmay, balki ko‘chma (yoki yasama) ma’nolariga ham asoslanadi [8,b11]. Albatta bu borada tabiiy tolalarga oid terminlar

orasida ham paxta guli, g‘o‘zaning boshi, ko‘sakning og‘zi kabi ko‘chma ma’nodagi terminlarni uchratishimiz mumkin. Muallif ushbu ishida metafora, metonimiya va snekdoxa yordamida nom ko‘chishni ko‘proq uchrashini ta’kidlaydi [8, b69]. Tabiiy tola xom ashyosi ma’nosini anglatadigan paxta, jun, ipak, quyon terminlarini misol qilishimiz mumkin.

“Terminologiyaga oid manbalarda bir so‘zga teng terminlar sistemaning minimal elementlari, ikki va undan ortiq so‘zlardan tuzilgan birikma shaklidagi terminlar esa maksimal elementlari sifatida talqin etiladi. Minimal elementlarga ayni sohaning tayanch yoki asos tushunchalarini ifodalovchi asosiy terminlar sifatida ham qaraladi”, — deb yozadi Suslova I.M. o‘zining ishida [9]. Ushbu fikr tanlagan obyektimiz hisoblangan tabiiy tola terminlarida ham o‘z isbotini topgan. O‘rganilgan tabiiy tolalarga oid terminlarda quyidagi minimal elementlarni uchratishimiz mumkin: tola, jun, paxta, ipak, mato, gazlama… “Bunday minimal elementlar asosiy o‘zak tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday minimal elementlar ishtirokida birikma shaklidagi terminlar yasalishi hodisasi ancha faol” [10]. Yuqoridagi tabiiy tolalarga bir komponentli terminlardan quyidagi ikki, uch, to‘rt, besh komponentli terminlarni yasashimiz mumkin: ikki komponentli terminlarga *tabiiy tola, sun’iy tola, tola sifati, tola uzunligi* kabi terminlarni, uch komponentli terminlarga *tolalar sifat nazorati, yarim sintetik tolalar, o‘simliklardan olinadigan tolalar, hayvonlardan olinadigan tolalar, paxta titish mashinasi* kabi terminlarni, to‘rt komponentli terminlarga esa *Farg‘ona-3 navli paxta, tolalarning yangi navlarini yaratish,* besh komponentli terminlarga *tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi, tabiiy tolalarga ishlov berish mashinasi* kabi terminlarni misol tariqasida keltirishmiz mumkin.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, terminologiya globallashuv katta ta’sir ko‘rsatadigan sohalardan biri hisoblanib, u yillar davomida rivojlanib, kundan kunga boyib boraveradi. Har bir kirib kelgan yangi o‘zgarish o‘zi bilan birga o‘z terminlarini olib keladi. Demak, terminologiya tilshunoslar, ilmiy izlanuvchilar tomonidan to‘xtovsiz o‘rganish talab etadi.

Terminlar ma’lum soha doirasida qo‘llaniladi, ular ehtiyoj natijasida kirib keladi yoki o‘ylab topiladi. Shu bilan birga minimal element terminlardan o‘zak termin sifatida foydalanib, ular yordamida unga sohadosh bo‘lgan boshqa terminlarni yasash ham mumkin.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. X.B.Qodirova. Atama va izoh. Monografiya. Toshkent-2019. b15
2. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. // Труды МИФЛИ. Том 5. Сборник статей по языковедению. – Москва, 1939. – С. 24.
3. Whewell W. The philosophy of the inductive sciences founded upon their history. Vo. I-II. - London,1967.
4. Nosirjon Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2016. b120.
5. Doniyorov R. O‘zbek tilining ilmiy-texnikaviy terminlar tarixidan. Toshkent. Fan, 1973.-b4
6. Nosirjon Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2016. b119.
7. Маматов Н. Узбекская хлопководческая терминология. Автореф. дисс... канд. филол. наук . –Ташкент: Наука, 1955. – с 27.
8. Usmonov S. O‘zbek terminologiyasining ba’zi masalalari. Toshkent: O‘qituvchi, 1968. – b 11, b69.
9. Суслова И.М. Терминология библиотековедения как системное образование // Терминология библиотечного дела. Сб.науч. тр. – М., 1975. – С.16-29.
10. Xamidov M. O‘zbek tilida seleksiya va urug‘chilikka oid birikmal terminlarning hosil bo‘lish modellari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Vol. 1, June 2021
11. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019.
12. http://idioms.thefreedictionary.com
13. Reed, J.N., E.M. Barnes and K.D. Hake. 2009. US Cotton Growers Respond to Natural Resource Survey. Technical Information Section. International Cotton Advisory Committee, THE ICAC RECORDER, Vol. XXVII. No. 2, June 2009.
14. Umarov. E. So‘z xususida so‘z.// Til va adabiyot ta’limi. 2002-y 2-son